

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOTIVATSIYA VA MUSTAQIL
TA'LIMNING ROLI VA FASILITATOR ATAMASI.

Abdullayeva Dinora Raimjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

abdullayevadinora977@gmail.com

Xamidova Sabrina Abduvahob qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu ishda motivatsiya va mustaqil ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Motivatsiyaning turlari va uning o'quv jarayoniga ta'siri hamda mustaqil ta'lim bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshirish va mustaqil ishlashini rivojlantirish masalalari qisqacha tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Motivatsiya, mustaqil ta'lim, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta'lim jarayoni, fasilitator.*

Abstract. *This work examines the role of motivation and independent learning in the modern education system. The types of motivation and their impact on the learning process, as well as their connection with independent learning, are discussed. In addition, issues related to increasing students' interest in learning and developing independent study skills are briefly analyzed.*

Keywords: *Motivation, independent learning, intrinsic motivation, extrinsic motivation, learning process, fasilitator.*

Аннотация. *В данной работе рассматривается роль мотивации и самостоятельного обучения в современной системе образования. Освещаются виды мотивации и их влияние на учебный процесс, а также их связь с самостоятельным обучением. Кроме того, кратко анализируются вопросы повышения интереса учащихся к обучению и развития навыков самостоятельной работы.*

Ключевые слова: *Мотивация, самостоятельное обучение, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, учебный процесс, Фасилитатор.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki intilishi, ya'ni motivatsiyasi hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Pedagogik konsepsiyalarda aynan shu ikki omil ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

Motivatsiya — bu o'quv faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u shaxsni bilim olishga, o'zini namoyon etishga va muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Pedagogik nazariyalarda motivatsiya ikki turga ajratiladi: ichki motivatsiya, ya'ni o'quvchining o'z ehtiyoji, qiziqishi va maqsadidan kelib chiqadigan turtki; hamda tashqi motivatsiya, ya'ni

mukofot, baho yoki ijtimoiy rag'bat kabi tashqi omillar orqali shakllanadigan turtki. Ta'lim samaradorligi aynan ichki motivatsiya darajasiga bog'liq bo'lib, u o'quvchining mustaqil faoliyatga intilishi, yangi bilimlarni izlab topishi va o'zini baholay olishi bilan belgilanadi [Xudoyqulova.M.U, 2025. 534].

Mustaqil ta'lim esa shaxsning o'z bilimini o'zi egallash, izlanish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, kuchli motivatsiya mustaqil o'rganishga undaydi.

Motivatsiya faqat ichki xohish sifatida emas, balki o'qitish usullari orqali ham shakllantirilishi mumkin. Darslarda zamonaviy vositalardan foydalanish, masalan, video, testlar, o'yinli topshiriqlar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ularni faol bo'lishga undaydi. Shuningdek, mustaqil ta'lim endi faqat uy vazifasi bilan cheklanib qolmaydi. O'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotni topish, uni tushunish va tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa uning fikrlashini rivojlantiradi va bilim olish jarayonida faolroq bo'lishiga yordam beradi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni mustaqil ishlashga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Bunda fasilitator to'g'ri yo'l ko'rsatib, kerakli sharoit yaratib berishi kerak.

Fasilitator nima? Fasilitator - bu o'qituvchi yoki rahbarning zamonaviy shakli bo'lib, u bilimni tayyor holda beruvchi emas, o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi shaxs.

Oliy ta'lim muassasalarida auditoriya dars soatlariga qaraganda mustaqil ta'lim soatlari anchagina ko'proq. Negaki, talabalar bir kunda atiga 4-5 soat dars jarayoniga va qolgan 10 soatini mustaqil ta'lim uchun sarflashi lozim. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda mustaqil ta'lim muhim o'rin egallaydi. Talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning nazariy bilimlari mustahkamlanadi hamda amaliy jihatdan qo'llash malakasi rivojlanadi. Shu bilan birga, mustaqil ta'lim talabalarda mas'uliyat, izlanish va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirib, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida haftaning ma'lum bir kuni "Mustaqil ta'lim kuni" sifatida belgilangan bo'lib, ushbu kunda talabalarning auditoriya mashg'ulotlari o'tkazilmaydi. Bu kun talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular berilgan topshiriqlar ustida ishlash, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda qo'shimcha manbalarni o'rganish bilan shug'ullanadilar. Shu jarayonda kutubxonalar, elektron resurslar va boshqa ilmiy bazalardan foydalanish orqali izlanishlar olib boriladi. Mazkur amaliyot talabalarda mustaqil fikrlash, izlanish ko'nikmasi va ilmiy faoliyatga bo'lgan mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik konsepsiyalar ichida motivatsiya va mustaqil ta'lim o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir. Chunki o'quvchining mustaqil o'qish jarayoniga kirishishi bevosita uning ichki motivatsiyasi bilan belgilanadi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va rag'batlantiruvchi rolni bajaradi. Hozirgi davrda konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda kompetensiyaviy ta'lim paradigmalarda o'quvchini

mustaqil subyekt sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [Xudoyqulova.M.U, 2025. 535].

Motivatsiyaning o'quvchilarga psixologik ta'siri shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, mustaqil ishlashga tayyorligi, fikrlash faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va psixologik barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar qiyinchiliklardan qo'rqmaydi, xatolarni rivojlanish uchun imkon deb qabul qiladi. Past motivatsiya esa o'quvchida tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik, darsga nisbatan loqaydlik kabi holatlarga olib keladi [Dadaqo'ziyeva G.E, 2025. 996].

1. Motivatsiyaning ta'rifi va turlari: Ichki motivatsiya: o'quvchining o'zi uchun qiziqarli va ahamiyatli bo'lgan maqsadlarni amalga oshirishga bo'lgan ichki istagi. Tashqi motivatsiya: rag'batlantirish vositalari, masalan, mukofotlar, baholar yoki tan olinishi orqali ta'sir ko'rsatish.

2. Motivatsiyaning ta'lim jarayoniga ta'siri: motivatsiya yuqori bo'lgan o'quvchilar materialni yaxshiroq o'zlashtiradi. Qiziqishning pasayishi o'quvchilarni passivlashtiradi va ularning bilim olish jarayonidagi ishtirokini kamaytiradi. Ichki motivatsiyaga ega o'quvchilar mustaqil o'rganishga moyil bo'ladi.

3. Motivatsiyani shakllantirish usullari: shaxsiylashtirilgan yondashuv — har bir o'quvchining qiziqishlarini aniqlash va ularga mos darslarni tashkil etish.

4. Rag'batlantirish: mukofotlar va tan olinishi orqali o'quvchilarning yutuqlarini qadrlash [Azizova D.R, 2024. 196].

Vrumning kutishlar nazariyasi o'qituvchining tashabbuskorligini tushuntirishda ayniqsa qulay. Agar pedagog yangi metodik material yaratishi yoki raqamli platformadan foydalangan darsi uchun real, aniq va tezkor rag'bat olishini bilsa, u buni yana takrorlaydi. Agar mukofot tizimi noaniq, shaffof bo'lmagan yoki boshqa mezonlarga bog'liq bo'lsa, uning motivatsiyasi susayadi va u faqat minimal vazifalarni bajarishga o'tadi. Demak, motivatsiya tizimi natija va rag'bat o'rtasidagi bog'liqlikni o'qituvchi aniq ko'ra oladigan tarzda qurilishi lozim. Adamsning adolat nazariyasi ham ta'lim jamoalariga to'la xosdir. Bir xil yuklamadagi yoki o'xshash natijaga erishgan o'qituvchilar turlicha e'tirof etilsa, jamoada ichki norozilik paydo bo'ladi, bu esa ish unumdorligini pasaytiradi. Shu sababli maktab yoki OTM darajasida rag'batlantirish shkalasi, mezonlari, tanlov shartlari ochiq e'lon qilinishi va muntazam qo'llanishi kerak [Asqarov. I, 140].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida motivatsiya va mustaqil ta'lim o'quv jarayonining o'zaro bog'liq va muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchining bilim olishga bo'lgan ichki va tashqi intilishini shakllantirib, uning faolligi va o'qishga munosabatini belgilaydi, mustaqil ta'lim esa bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli ularni to'g'ri tashkil etish va rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyqulova M.U Guliston davlat pedagogika instituti stajyor o'qituvchi p
Pedagogik konsepsiyalarda motivatsiya va mustaqil ta'limning o'rni journal of iqro -
журнал иқро - iqro jurnali - volume 18, issue 01, 2025.
2. Azizova D.R Motivatsiya va ta'lim jarayoni osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi
latest pedagogical and psychological innovations in education. International online
conference.
3. Asqarov I, Pedagogik motivatsiya nazariyalari va ularning zamonaviy ta'lim tizimida
qo'llanilishi Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzurida gi Namangan akademik litseyi
direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari.
4. Dadaqo'ziyeva G.E va Yulchiyeva. D Tilshunoslik masalalari yosh tadqiqotchilar
nigohida talabalar ilmiy konferensiya. Toshkent 2025 - yil 23 – may ta'limda motivatsiya:
o'quvchilar faoliyatiga psixologik ta'sir O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
va O'zDJTU o'qituvchisi.